



XORIJIY TAJRIBALAR ASOSIDA BO'LAJAK TARBIYACHILARDA KASBIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH

Sultansaidova M.A.

TDPU, Maktabgacha ta'lim texnologiyasi kafedrasi o'qituvchisi.

Tayanch so'zlar: pedagogik yondashuv, metodik tayyorgarlik, kompetensiya.

Ключевые слова: педагогический подход, методическая подготовка, компетентность.

Key words: pedagogical approach, methodological preparation, competence.

РЕЗЮМЕ:

Ushbu maqolada xorijiy tajribalar asosida bo'lajak tarbiyachilarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish asoslari haqida so'z boradi.

РЕЗЮМЕ:

В данной статье говорится об основах формирования профессиональных компетенций у будущих учителей на основе зарубежного опыта.

SUMMARY:

This article talks about the basics of developing professional competencies among future teachers based on foreign experience.

Maktabgacha ta'lim tizimi nafaqat O'zbekistonda balki butun dunyoda katta ahamiyatga ega sohalardan hisoblanadi. Butun dunyoda ta'lim maktabgacha ta'lim muassasalaridan boshlanishi barchamizga ma'lum. Ushbu sohani rivojlangan mamlakatlar tajribasidan foydalangan holda tahlil qilish va yurtimizda ham erishilgan natijalarning tahliliga muvofiq qiyosiy o'rganish muhim va qiziqarlidir.

Yevropa mamlakatlarida, xususan, Germaniyada ham maktabgacha ta'lim tizimiga alohida e'tibor beriladi. Germaniyada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida asosan bog'larda va umumiy zallarda bolalarni tarbiya qilishadi. 50-80 ta bolani birgalikda jamoaviy tarzda tarbiya etishadi. Ularda yoshga qarab alohida guruhlarga ajratilmaydi turli yoshdagilar birgalikda yurishadi bundan asosiy maqsad turli yoshdagi insonlar bilan muloqot qilishni o'rganishga imkon beradi. 20-25 bolaga ikkita tarbiyachi beriladi. Germaniyada maktabgacha

ta'lim muassasasi tarbiyachilarini o'qitish tizimi mamlakatimiz tizimidan tubdan farq qiladi. Ular 3 bosqichda tahsil olishadi.

Birinchi bosqichda talaba maktabgacha ta'lim tashkilotiga yuboriladi ikki yil mobaynida turli hil ishlar va bolalar bilan shug'ullanishadi ular amaliyot o'tashadi.

Ikkinchi bosqichida esa ikki yil mobaynida nazariy bilimga ega bo'lishadi. Ularga asosan bola psixologiyasi, yosh fiziologiyasi, pedagogika kabi fanlar o'qitiladi.

Uchunchi bosqichda yosh tarbiyachi-pedagoglar malakali tarbiyachi-pedagoglarga bir yil muddatga shogirtlikka borishadi va ish tajribasini o'rganadi so'ng diplomga ega bo'ladi. Germaniyada bolalarni asosan mustaqil va erkin qo'yadilar. Pedagoglarga ham shu metodik tayyorgarlik o'rgatiladi .

Germaniyada barcha maktabgacha ta'lim muassasalarida mavjud bo'lgan o'qitish hamda kasbga yo'naltirishning eng samarali metodi sifatida "Fryobel" metodi qo'llaniladi. Ushbu metodga binoan bolalar faqat o'zlari qiziqqan soha bilan shug'ullanadi. Fridrix Froebel kichkintoylar uchun birinchi ta'lim tizimlaridan birini ishlab chiqdi. Uning asosiy g'oyasi shundaki, barcha bolalar iste'dodli va noyobdir, lekin har bir bolaning qobiliyatlari har xil ko'rinishda namoyon bo'ladi va har xil faoliyat turlariga qaratilgan. Shuning uchun bolalarni xuddi shu narsani qilishni dasturlash mumkin emas, har bir bola individual yondashuvga yega bo'lishi kerak. Tarbiyachilar maktabgacha yoshdagi bolalarning xatti-harakatlarini kuzatadilar, ularning turli o'yinlarda ishtirok etishlarini nazorat qiladi, dunyoqarashini rivojlantiradilar, ammo bolaning shaxsiy qobiliyatlari, uning qiziqishlari va afzalliklariga ustuvor ahamiyat beriladi.

Germaniyada ham bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy metodik kompetensiyalarini oshirishda amaliy mashg'ulotlardan ko'proq foydalaniladi. Bu albatta kasbiy metodik kompetensiyani mukammal darajada shakllanishi bilan birgalikda haqiqiy yetuk mutaxassisni tarbiyalashga imkoniyat yaratadi. Kasbiy metodik kompetensiyaga ega bo'lgan pedagoglar dars jarayonini tashkil etishda qiyinchiliklarga duch kelmaydi.

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimi butun dunyoga yangicha talablar qo'yimoqda. Maktabgacha ta'lim tizimi hodimlarining innovatsion ijodiy, fikrlovchi kreativ g'oyalarga ega bo'lishi lozimdir. Maktabgacha ta'limning zamonaviy tizimi ochiq, o'zgaruvchan, sifatli ta'lim berishga qaratilgandir. Rossiya Federatsiyasida maktabgacha ta'lim tizimi hodimlarining kasbiy malakasiga bo'lgan qiziqishlari ortib bormoqda. Federal davlat standartlariga



muvofiq bolaning o'zining hayoti sub'ekti sifatida rivojlantirish muammosi alohida ahamiyatga ega.

Rossiya Federatsiyasida maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglarining kasbiy-metodik kompetensiyalarini oshirishda ular quyidagi vazifalarga alohida e'tibor qaratishar ekan.

Talabalar dastlab maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy-madaniy rivojlanishi to'g'risidagi nazariy bilimlarni mukammal egallashi, o'zlashtirishi lozim;

Bo'lajak tarbiyachilar maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy-madaniy rivojlanishini shakllantirish uchun o'zlarining bevosita faoliyatlarini rejalashtirish va tahlil qilishga o'rgatiladi;

Bo'lajak tarbiyachilarni tayyorlashda turli xil pedagogik tadqiqotlar asosida bolalarning rivojlanishiga integral ta'limdan foydalanadi.

Tarbiyachilarning professional komponentlariga ya'ni motivatsion, kognitiv, mustaqillik kabi bir qator mezonlarga alohida e'tibor berishadi. Aynan mana shu xislatlari ularning professionalligini belgilab beradi. Rossiya maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyachining vazifasi bolaning ongi va inson faoliyati birligini ta'minlashdir. Rossiyada bolalar bog'chasiga shaxsning o'sishiga yordam beradigan, haqiqiy ijtimoiy munosabatlarga kirishning eng maqbul joyi hamda amaliy hayot, bolalarni individuallashtiruvchi makon sifatida qarashadi. Bunda esa muhim rolni tarbiyachi o'ynaydi deb bilishadi. Tarbiyachi Bolani ijtimoiy rivojlanishi va huquqlarini himoya qila oladigan o'z taqdirini o'zi belgilay oladigan etib tarbiyalashga mas'uldir.

Rossiya Federatsiyasida bo'lajak tarbiyachining kasbiy metodik kompetentligi tarkibiga quyidagilarni kiritadi.

- Motivatsion komponentga ega bo'lishi zarur; ya'ni bolalarning kasbiy yo'naltirishga va rivojlantirish hamda motivlarni shakllantirishga qodir bo'lishi lozim;

- Tarkib komponenti; ya'ni pedagogik uslubiy rivojlanish, ijtimoiy-madaniy ta'limni shakllantirishbo'yicha nazariy va amaliy bilimlarni maktabgacha ta'lim muassasalarida qo'llay olishi;

- Operatsion komponent; ya'ni kelajakda bolalarning ijtimoiy-madaniy rivojlantira olish ko'nikmasiga;

- Refleksiv komponent; ya'ni bunda tarbiyachi egallagan psixologik va pedagogik mahoratlarini, uslubiy bilimlarini, ko'nikma va malakalarini qo'llay olishi;

- Integratsion komponent; bunda bo'lajak tarbiyachi maktabgacha yoshdagi bolalarning imkoniyatlarini ko'ra olishi va ijtimoiy-madaniy rivojlanishiga ta'sir ko'rsata olish qobiliyatiga ega bolishi lozimdir.

Ushbu mamlakatda dual ta'limga alohida e'tibor qartishadi ya'ni amaliyot va nazariya uyg'unligiga. Rossiyada bo'lajak tarbiyachilarning kasbga yo'naltirib o'qitishda metodik tayyorlash modeli mavjud bo'lib bunda quyidagilarni o'z ichiga oladi.

Konseptual kompetensiyaga ega bo'lishi- nazariy asoslarni to'g'ri tushunish, o'z kasbini tahlil qilish, tizimlashtirish va shakllantirish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim;

Texnologik kompetensiya – kasbiy ko'nikmalar amaliy ish tadqiqotlar tahlillar va umulashmalarni birlashtira olishi hamda kasbiy faoliyatda qo'llay olishi;

Integrativ kompetensiya – nazariya va amaliyotni bog'lay olsih qobiliyati;

Adaptiv kompetensiya – mumkin bo'lgan o'zgarishlarni oldindan bilish qobiliyati va unga tayyorlanish;

Shaxslararo kompotensiya – professional muloq qila olish qobiliyatidir. Shu jihatlarni inobatga olgan holdi ushbu davlatda milliy modeli ishlab chiqilgandir. Bo'lajak tarbiychilarni shakllantirishda mana shu jihatlarga alohida e'tibor qaratiladi.


Rossiya Federatsiyasida maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini qurish an'anaviy bolalar bog'chalari bilan bir qatorda maktabgacha ta'lim muassasalarining quyidagi shakllarini institutsionalizatsiya qilishni o'z ichiga oladi:

- bola va ota-onaning birgalikda qisqa muddatli qolish guruhleri ("bola-ota-ona", "onam bilan bolalar bog'chasi", "o'yinni qo'llab-quvvatlash markazi", "moslashuv guruhi" va boshqalar.), bolalar bog'chalari bazasida, bolalar ijodiyoti markazlarida, yosh bolalar bilan ishlash uchun maxsus markazlarda yoki psixologik-pedagogik markazlarda tashkil etilgan;

- kasanachilik ta'lim guruhleri ("bola va enaga", "repetitor guruhleri", "oilaviy guruhlar", "mini-bolalar bog'chasi" va boshqalar.), ota-onalar tomonidan uyda yoki shu maqsadda maxsus ijaraga olingan turar-joy kvartiralarida tashkil yetilgan;

- bolaning bolalar bog'chasida yoki boshqa ta'lim muassasasida yoki maktabgacha ta'lim dasturi amalga oshiriladigan tashkilotlarda qisqa muddatli bo'lish guruhlar.

Bunday maktabgacha ta'lim muassasalarini tashkil etish tarbiyalanuvchilarda kasbga oid ko'nikmalarni mukammal va oson o'zlashtirishga yordam beradi.



Biz ushbu birinchi bobimizda “Bo’lajak tarbiyachilarning kasbiy metodik kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslari”ni o’rganib chiqdik. Kompetensiya, kasbiy kompetensiya, metodik kompetensiya uning ahamiyati va pedagogik muammo sifatida ahamiyati hamda bo’lajak tarbiyachilarni kasbiy metodik kompetensiyalarini oshirishda xorijiy tajribalar tahlil qilindi. Xorijiy tajribada asosan to’rtta rivojlangan mamlakatning maktabgacha ta’lim tizimi bo’lajak tarbiyachilarni kasbiy metodik kompetensiyasini oshirishning milliy model, usul va uslublari o’rganildi tahlil qilindi.

Yuqoridagi tahlil hamda mulohazalardan kelib chiqib O’zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan maktabgacha ta’lim muassasalarining tarbiyachilarini kasbga yo’naltirib o’qitishda “Fryobel” metodidan foydalanish maqsadga muvofiq bo’lar edi. Shu bilan bir qatorda, pedagogik mahorat modeli asosida faoliyatni yo’lga qo’yishi tavsiya etiladi.

Adabiyotlar:

1. Gaynazarov G. Malaka oshirish jarayonida maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachilari kasbiy kompetentligini rivojlantirish. Pedagogika fandari bo’yicha f.d. (PhD) diss. avtoref. Namangan 2021.
2. Raxmanov B.X. Bo'lajak o'qituvchi uchun kasbiy madaniy aloqalarni shakllantirish tizimi.:T
3. Sultansaidova, M. (2023). Maktabgacha ta’lim muassasalari tarbiyachilarini kasbga yo’naltirib o’qitishda metodik tayyorgarligini takomillashtirish yuzasidan xalqaro tajribalar. Maktabgacha va maktab ta’limi jurnali, 1(1).
4. Development of Professional Competencies of Students Based on Social Cooperation. A.A.Artikbayeva. Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal 2 (2), 354-356
5. Abzalxanovna, S. M. (2023). Jahon reytingi va bo’lajak tarbiyachilarni kasbga yo’naltirib o’qitishda metodik tayyorgarligini takomillashtirishning nazariy asoslari. Science and innovation, 2(Special Issue 13), 758-761.